

ONA TILI FANINI ANIQ FANLAR BILAN ALOQADORLIKDA O'QITISH

Diyora Shamshiyeva

Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili fani hamda uni aniq fanlar bilan aloqadorlikda o'qitish yuzasidan fikrlar tahlilga tortilgan. Qayd etish lozimki, ona tilini aniq fanlar bilan hamohang tarzda o'qitish ushbu fan salmoqliligini oshirish bilan birgalikda, uning dars jarayonida o'quvchilar uchun yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlab beradi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, ona tilini o'qitish, aniq fanlar, o'qitish, ona tili va aniq fanlar hamkorligi.*

TEACHING THE SCIENCE OF MOTHER LANGUAGE IN RELATION TO EXACT SCIENCES

Abstract: *In this article, opinions on mother tongue science and its teaching in connection with specific subjects are analyzed. It should be noted that teaching the mother tongue in harmony with specific subjects, along with increasing the importance of this subject, ensures that it becomes more interesting for students in the course of the lesson.*

Keywords: *mother tongue, teaching mother tongue, concrete sciences, teaching, cooperation of mother tongue and concrete sciences.*

ПРЕПОДАВАНИЕ НАУК РОДНОЙ ЯЗЫК В ОТНОШЕНИИ ТОЧНЫХ НАУК

Абстрактный: *В данной статье анализируются взгляды на науку о родном языке и ее преподавание в связи с конкретными предметами. Следует отметить, что обучение родному языку в гармонии с конкретными предметами, наряду с повышением значимости этого предмета, способствует тому, что он становится более интересным для учащихся в ходе урока.*

Ключевые слова: *родной язык, обучение родному языку, конкретные науки, обучение, сотрудничество родного языка и конкретных наук.*


Bugungi kunda ta'lim sohasi jadallik bilan rivojlanayotgan bir davrda fanlarni ham shunga monand tarzda o'qitish davr talabiga aylanib ulgurdi. Ta'kidlash lozimki, fanlar o'qitilishini zamonga munosib tarzda olib borish hamda ularning samaradorligini ta'minlash o'qituvchi-pedagoglar zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi[1]. Ushbu maqolada ona tili fani hamda uni aniq fanlar bilan o'qitish yuzasidan nazariy mulohazalar keltirilgan bo'lib, ularning amaliy tasnifi ham qo'shimcha tarzda yoritib berilgan.

Bilamizki, ona tili fani gumanitar fanlardan biri sanalib, uni boshqa fanlar bilan hamkorlikda o'qitish ushbu fanning mohiyatini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ona tilini o'qitish jarayonida ba'zi mavzularning yanada kengroq ko'lamga ega ekanligini tasniflashga xizmat qiladi.

Ona tili fani aniq fanlardan biri sanalmish matematika fani bilan aloqador hisoblanib, undagi mavjud arifmetik sonlarning til sohasida qo'llanilishi ushbu ikki fanning o'zaro aloqador ekanligini ko'rsatadi. Xususan, ona tilidagi quyidagi terminlar matematika fani bilan o'zaro aloqadorlikda yuzaga kelgan: “...bir bosh bo'lakli gaplar, ikki bosh bo'lakli gaplar, ...bir bo'g'inli so'zlar, ikki bo'g'inli so'zlar va hokazo”. Bundan tashqari, ushbu ikki fanning o'zaro qiyosiy jihatlaridan yana biri bu matematika fanida qo'llaniladigan formulalarga o'xshash formulalarning tilshunoslik fanida ham foydalanilishidir. Jumladan, matematikada bu $a+b=c$ va shu kabi ko'rinishga ega bo'lsa, ona tilidagi WpM formulasini misol sifatida keltirish o'rinli (bu yerda *W-word*; *p-predikat*; *M-marker*). Qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, ona tili hamda matematika fanlari integratsiyasi asosida matematik lingvistika deb atalgan yangi fan tarmog'i ham yuzaga kelgan. Wikipedia online ochiq lug'atida ushbu fanga quyidagicha ta'rif beriladi:

“*Matematik lingvistika - 1) tilshunoslikning tilni tadqiq etish va o'rganishda matematik usullardan foydalanuvchi bo'limi; 2) matematikaning tabiiy tillar bilan ba'zi bir jihatlardan o'xshash bo'lgan mavhum strukturalarni o'rganuvchi bo'limi*”[9].

Ushbu fan tarmog'ida tilga doir tushunchalarni matematik yo'l bilan tasniflash, klaster metodi asosida guruhlarga ajratish tilshunoslikka aynan matematika fanidan o'tgandir[4]:



Yuqorida keltirilgan paradigma aynan matematikadan o'zlashgan klaster hisoblanib, undoshlarning tasniflanishiga asoslangandir.

Ona tili va aniq fanlarning aloqasini yuzaga keltiruvchi turli xil metodlar kundan kunga ommalashib bormoqda. Xususan, raqamli metodlar, figurali metodlar va boshqalar. Shunday metodlardan biri “Raqamlar o'yini” metodi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi va ular matn tarkibidan raqamlar izlab topadilar:

1-guruh: Jobir, Aziza, Latofat, Anvar, Salima (bir)

2-guruh: Madina, Azizbek, Asila, Sobir, Saida (ikki)

3-guruh: Ruhshona, Jasur, Ozoda, Mehriddin, Mohina (uch) kabi.

“Raqamlarda soʻzlar yashirin” oʻyini Soʻzlar harflarning alifbodagi raqamlari bilan beriladi. Oʻquvchilar harflarning alifbodagi oʻrniga qarab hikmatli soʻzni topadilar.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj	Kk
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss	Tt	Uu
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
Vv	Xx	Yy	Zz	O'o'	G'g'	SHsh	CHch	NGng	'

- 1) 21,1,19,1,13,13,8
- 2) 18,4,21,12,14,16
- 3) 8,23,12,14,13,3,1,13,3,8,17.

Vatanni sevmoq iymondandir. (Hadis)

Matematik savodxonlik kompetensiyasi singdiriladi.

Matematika fanida qoʻllaniladigan zanjirlar tushunchasiga monand holda tilshunoslikdagi soʻz birikmalari zanjiri uygʻun hisoblanib, dars jarayonida ularni aniqlashda bevosita zanjirlar sistemasiga murojaat qilinadi. Ularning oʻzaro oʻxshash hamda farqli jihatlarni quyidagi jadval asosida koʻrib chiqishimiz mumkin:

№	Matematika fanida zanjir tushunchasi	Ona tili fanida zanjir tushunchasi
1	Sonlar {} belgisi asosida umumiy lashtiriladi.	Soʻz birikmalari tarkibidagi soʻzlarga yuqoridan birlashtiruvchi chiziq(strelka) asosida umumlashtiradi.
2	Sonlar oʻxshash jihatlari koʻra zanjir belgisi yordamida umumiy koʻrinishga keladi.	Soʻzlar oʻzaro birikishiga koʻra bir guruhga birlashtiradi.
3	Zanjir belgisi ostida raqamlar namoyon boʻladi.	Birlashtiruvchi chiziq ostida soʻzlar namoyon boʻladi[6].

Ona tili fanini taʼlim dasturida aniq fanlardan biri hisoblanmish informatika fani bilan uygʻunlikda oʻqitish taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sanaladi. Informatika fani doirasida oʻqitiluvchi kompyuter texnologiyalari vositasida ona tilidagi mavzularni aks ettirish oʻquvchi tafakkuriga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi. Multimedia vositalari orqali namoyish etilgan oʻquv mavzulari oʻquvchi xotirasida oson saqlanib qolishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Bundan tashqari, ona tili hamda informatika fanlarining oʻzaro muvofiq jihatlari ham mavjud boʻlib, ushbu fanlar integratsiyasi asosida yangi fan sohasi, yaʼni kompyuter lingvistikasi yuzaga kelgan. Ushbu yoʻnalishning asosiy maqsadi kompyuter tilini oʻrganish, tezaurus, konkordans lugʻatlar yaratish, qidiruv tizimini mukammallashtirish, bir soʻz bilan aytganda, tildagi mavjud soʻzlar sistemasini kompyuter dasturiga oʻtkazish hisoblanadi[3]. Hozirgi kunda ona tili darsida oʻtilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida olib boriladigan savol-javob uslubini kompyuter tiliga oʻgirish ushbu sohaning mukammallashtirishiga yordam beradi. BORIS dasturi aynan bu yoʻnalishni mustahkamlashga yordam beruvchi matn boʻyicha savol-javobga asoslangan informatsion dastur sanalib, undagi savol-javob kimga?

qayerga? nima uchun? kabi savollarga javob berish orqali namoyon bo`ladi. Masalan, quyida keltirilgan qisqa matnni BORIS dasturi orqali tahlil qilsak:

Maktabdan qaytayotgan Komilning sumkasida onasi uchun olingan bir qancha shirinliklar bor edi.

BORIS dasturi ushbu mikromatnни quyidagicha tahlil qiladi:

✓ Kimning sumkasida onasi uchun olingan bir qancha shirinliklar bor edi – *ishtirok etuvchi shaxsga qaratilgan savol.*

✓ Maktabdan qaytayotgan Komilning.

✓ Komilning sumkasida nima bor edi – *aniqlanishi lozim bo`lgan predmet.*

✓ Shirinliklar.

✓ Shirinliklar kim uchun olingan edi – *predmetning kimga mo`ljallanganligini aniqlashga qaratilgan savol.*

✓ Komilning onasiga[8].

Demak, BORIS dasturi bevosita ona tili fanidagi matnlar bilan ishlashga mo`ljallangan bo`lib, uning savol-javob qismi,ayniqsa, matn tahlilida ahamiyatli hisoblanadi. Qo`shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mavjud kitob-lug`atlarni keng ommaga targ`ib qilishda informatika fanida qo`llaniladigan dasturlar anchayin qo`l keladi. Buning uchun kompyuter leksikografiyasini yaratish, korpus tizimini yo`lga qo`yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, ta`lim jarayonida ona tili fanini aniq fanlar, xususan, matematika, informatika kabi fanlar uyg`unlida o`qitish ushbu fanning ma`no-mohiyatining yanada kengroq ochilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ta`lim samaradorligi ham fanlar hamohangligi asosida ochib berilishi ushbu fanlar uzviyligini ta`minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zokirov H. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Andijon, 2008.
2. Iskandarova Sh. O`zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o`rganish (shaxs mikromaydoni): f.f.d....diss.avtoref. –Toshkent, 1999.
3. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Ismoilov G_. O_zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo_lishi: f.f.n....diss.avtoref. –Toshkent, 2011.
5. Yuldashev I. O_zbek kitobchilik terminologiyasi shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish: f.f.d....diss.avtoref. –Toshkent, 2005.
6. Yo`ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.
7. www.ziyouz.com
8. www.kitobdunyosi.uz
9. www.wikipedia.org
10. www.hozir.org
11. www.google.com